

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Valijonova Shaxzoda

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH 6-9

Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK
MOSLASHTIRISH ALGORITMI 10-15

Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI 16-19

IQTISODIYOT FANLARI

G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 20-24

FALSAFA FANLARI

Парниева Айгуль

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ 25-30

FILOLOGIYA FANLARI

Tursunova Farangiz

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI
JIHATLARI 31-33

Jo'rayeva Nozimaxon

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK 34-38

Inatova Jasmina

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI 39-42

Mavjudboyeva Mardona

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI 43-47

Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY
KONTEKSTDA 48-50

Xamidova Go'zal

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI 51-53

Adasheva Durdona

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI	72-77
YURIDIK FANLAR	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI	91-93
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING	144-149

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI

Inatova Jasmina Sohib qizi

Qarshi davlat universiteti 1-kurs talabasi

Email: inatovajasmina501@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda arab yozuvining tadbiiq etilishi va keyinchalik bu yozuvdan lotin yozuviga o'tish jarayonining tarixiy, siyosiy va madaniy asoslari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda XX asr boshida yozuv bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar va ularning bosqichlari, jumladan, jadidlar harakatining roli, aholini savodxonlikka chaqirishdagi reformatsiyalar va yangi alifboga o'tish jarayonida uchragan muammolar-ta'lim tizimidagi qayta shakllanish, o'quvchilarning, hattoki o'qituvchilarning yangi yozuvni o'rganishdagi va o'rgatishdagi qiyinchiliklari, o'quv materiallarining yetishmasligi, axborot vositalari tarmog'ini texnik jihatdan qayta moslashtirilishi kabi masalalar batafsil bayon qilingan. Shuningdek, yozuv almashinuvining jamiyat hayotiga ta'siri, yangi avlod va ulardan oldingi avlodlar yozuvi o'rtasidagi tafovutning madaniy muloqotga ta'siri va yangi alifbo orqali tilni modernizatsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilingan, Izlanishda o'zbek jamiyatidag yozuv doirasida amalga oshirilgan islohotning ahamiyati va uning til rivojiga qo'shgan hissasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar. Arab yozuvi, islohotlar, jadidlar harakati, savodxonlik, reformatsiyalar, yangi alifboga o'tish, ta'lim tizimi, o'quv materiallari, axborot vositalari, yozuv almashinuvi, modernizatsiya, til rivoji.

THE PROCESS AND PROBLEMS OF TRANSITIONING FROM ARABIC TO LATIN WRITING

Inatova Jasmina Sahib kizi

1st year student of Karshi State University

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the historical, political, and cultural foundations of the introduction of the Arabic script in Uzbekistan and the subsequent transition from this script to the Latin script. The study describes in detail the reforms implemented in writing at the beginning of the 20th century and their stages, including the role of the Jadid movement, the reformations in calling the population to literacy, and the problems encountered in the process of transition to a new alphabet - the reorganization of the education system, the difficulties of students and even teachers in learning and teaching the new script, the lack of educational materials, and the technical re-adaptation of the information media network. It also analyzes the impact of the change of script on social life, the impact of the difference between the writing of the new generation and the writing of the previous generations on cultural communication, and the possibilities of modernizing the language through the new alphabet. The study reveals the importance of the reform implemented within the framework of writing in Uzbek society and its contribution to the development of the language.

Keywords: Arabic script, reforms, Jadid movement, literacy, reformations, transition to a new alphabet, education system, educational materials, media, script exchange, modernization, language development.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n08>

Kirish. Yozuv insoniyat tarixidagi eng buyuk kashfiyot. U inson tafakkurning, madaniyatining va jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichi bo'lib, og'zaki nutqni yozma shaklda ifodalash imkonini berdi. Yozuvdan avval insonlar axborotni yetkazish uchun turli belgi va tasvirlardan foydalanishgan. O'zbek xalqi ming yillar davomida bir nechta yozuv tizimlaridan foydalangan. O'zbek alifbosining hozirgi ko'rinishga kelishi uzoq tarixiy jarayonlar bilan bog'liq. Ma'lumki, o'zbek adabiy tilida amalda bo'lgan yozuvlar tarixiga e'tibor qaratilsa, 1929-yildan to 1940-yilgacha lotin yozuvi asosiy yozuv sifatida iste'molda bo'lgan. Bu davrga oid ko'p manbalar hanuzgacha arxivlarda qolayotganligi sababli bu jarayonlarni qisqacha bo'lsa

ham tanishtirib borishga qaror qildik. Zero, tilimiz tarixini to'laligicha o'rganish, unga obyektiv baho berish muhim hisoblanadi. [1; B.96.].

Dastlab Qadimgi Turk yozuvlari (VI-X asrlar): O'zbek xalqining ajdodlari qadimgi turkiy qabilalar O'rxun-Enasoy bitiklaridan foydalangan. Bu yozuv o'ngdan chapga yozilgan runik shakldagi belgilardan iborat edi. Asosan yodgorliklar, tosh bitiklar, yozma tarixiy axborotlarda qo'llangan. Bu yozuvdan so'ng Arab yozuvi davri (X asr - 1929-yilgacha). Islom dini Markaziy Osiyoga kirib kelgach, arab yozuvi keng tarqaldi. Alisher Navoiy, Bobur, Xorazmiy, boshqa ko'plab adiblar va olimlar asarlari arab yozuvida yozilgan. Ushbu yozuv turkiy tilning fonetik xususiyatlariga to'liq mos kelmagan, lekin ilm-fan va adabiyot rivojida muhim rol o'ynagan. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yangi usuldagi maktablarning tashkil qilinishi, yangi maktablar uchun darsliklar tayyorlash jarayonida arab yozuvining kamchiliklari ko'zga tashlanib qoldi. "Milliy uyg'onish" davrida arab imlosi va alifbosiga ayrim islohlarni kiritish boshlangan. Ilg'or o'zbek ziyolilari 1905-1907 yillardan (matbuot va so'z erkinligiga erishilgandan so'ng) ayrim arabcha harflarning shakliga, ba'zi imlo qoidalariga isloh kiritish to'g'risida matbuotda yoza boshlaganlar. Ammo bu masalaga Turkistonni boshqargan davlat amaldorlari salbiy munosabatda bo'lib, "O'lkada davlat tili rus tili, mahalliy tillar, ularning yozuvi, imlosi bilan shug'ullanish davlatning vazifasi hisoblanmaydi",- deb salbiy munosabatda bo'lganlar. Jadidlarimizdan biri Abdurauf Fitrat arab yozuvining kamchiliklari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi: 1. Arab yozuvi o'zbek tili nutq tovushlariga moslashtirilmay, arab alifbosida qanday bo'lsa, o'zbek tilida shunday holatda qo'llanilib kelinayotganligi. Ma'lumki, arab alifbosii kam unilili va ko'p undoshli so'zli tillariga mo'ljallangan. Arab yozuvi o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini to'la ifodalay olmaydi. O'zbek tilidagi unli tovushlarni yozuvda ifodalash uchun arab alifbosidagi belgi-shakllar yetishmaydi. 2. Arab tilida cho'ziq va qisqaligi bilan farqlanuvchi atigi uchta unli fonema bor: a, i, u. Yozuvda cho'ziq unililar ifodalanadi, qisqa unililar harakat bilan beriladi va yozuvda ular, ko'pincha, ifodalanmaydi. Bu esa, savod chiqarish ishlarida qiyinchilik tug'diradi. 3. Ayrim unli va undoshlar shaklining bir xilligi, ularning alohida belgi-shakllar asosida farqlanmasligi. 4. Ayrim undoshlarning yozuvda ikki xil, uch xil belgi-shakl bilan ifodalanishi. 5. Turkiy tillar uchun, shu jumladan, o'zbek tili uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan unlilarning qattiq-yumshoqlik, keng-torlik darajasini arab alifbosida berishning imkoniyati yo'qligi. 6. Arab alifbosidagi harflarning yozuvda to'rt shaklda bo'lishi. [2; B.74.].

Shu sababli XX asr boshlarida yozuvni soddalashtirish va uni xalq ommasiga uchun qulayroq qilish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Lotin yozuviga o'tish tashabbuslari aynan mana shu ehtiyoj natijasida shakllandi. 1918-yilda Toshkentda til-imlo va adabiyot masalalari bilan shug'ullanuvchi to'garak-seminar Chig'atoy gurungi" jamiyati tashkil topadi. Unga Fitrat va Qayum Ramazonov boshchilik qilishadi. 1919-1920 yillarda bu jamiyat a'zolari alifboni isloh qilish bilan bog'liq "Bitim yo'llari" kitobchasini yaratadi. 1921-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan til-imlo anjumanida muhokama qilinadi va ba'zi tuatishlar bilan tasdiqlanadi. Isloh qilingan yozuv qariyb sakkiz yil amalda qo'llanib kelindi. Lekin barcha turkiy xalqlarda lotin yozuviga o'tish harakatlarining boshlanishi, O'zbekistonda ham bu yozuvni hukumat miqyosida targ'ib qilinishi natijasida bu yozuvga o'tish bo'yicha turli anjumanlar tashkil qilindi, gazeta-jurnallarda bahs-munozaralar boshlanib ketdi. Lotin yozuviga o'tishdagi eng asosiy masala o'zbek tilining o'ziga xos bo'lgan qonun-qoidalarini hisobga olgan holda alifbo yaratish edi. [3;B.76.]. Jadidlar tomonidan bir necha alifbo loyihalari yaratiladi, yig'ilishlar, anjumanlarda

qizg'in muhokama qilinadi. Eng so'nggi, nisbatan mukammal alifbo 1929-yilda Samarqandda bo'lib o'tgan til-imlo anjumanida muhokama qilinib, tasdiqlanadi. Samarqand anjumani o'zbek tilida ham boshqa turkiy tillardagi kabi singarmonizm qonuniyati mavjudligi e'tirof etiladi, shu asosda o'zbek tilida ham unlilar yo'g'onlik-ingichkalik asosida tasnif qilinib, 9 ta unli belgilanadi. Bu holat esa o'zbek tilining boshqa turkiy tillarga to'la yaqinlashish jarayoni edi. Anjumanda uchta eng muhim qaror qabul qilinadi: 1. O'zbek adabiy tili to'g'risida. 2. O'zbek adabiy tili imlo qoidalari to'g'risida. 3. Atamalar to'g'risida. Afsuski, Samarqand anjumani jadid ma'rifatparvarlarining faoliyatidagi eng samarali, shu bilan birga, eng so'nggi tarixiy ishlardan biri edi. [4; B.56.]. Qizil imperiyaning mafkurasi barcha sohalar kabi tilga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Eng avvalo, jadidlarga "xalq dushmani" tamg'asi bosiladi. Otajon Hoshimning fikricha, feodalizm davrida yashagan, o'z asarlarini chig'atoy adabiy tilining (Navoiy, Bobur, Lutfiy va hokazolari) feodal mohiyatidan olgan imlo biz uchun yaroqsizdir. Shuningdek, Oktabrgacha hukm surgan, ya'ni jadidizm imlosi ham bizga ma'qul emasdir, degan fikrlarni aytgan. Shunday qilib keying davr Kirill yozuvi (1940-1991) davri bo'ldi. 1940-yilda SSSR siyosati ta'sirida o'zbek tili uchun kirill alifbosi qabul qilindi. Bu alifbo 35 ta harfdan iborat bo'lib, til tovushlarini aniq ifodalash imkonini bergan. O'zbek adabiyoti, darsliklar, ilmiy asarlarning katta qismi shu yozuvda yaratildi. 1940-1941-o'quv yilida maktablarning quyi sinflarida o'quv jarayoni yangi yozuvga ko'chiriladi. 1941-1942-o'quv yilida maktablarning yuqori sinflarida ham o'quv jarayoni yangi (kirillcha o'zbek) yozuvga ko'chiriladi. 1946 yilda orfografiya qoidalarining yangi to'plami yaratiladi, imlo lug'ati va qiyin so'zlar lug'atini tuzishga kirishiladi. [5; B.78.].

Nihoyat, 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston mustaqillikka erishdik. Mustaqillikning dastlabki yillarida o'zbek yozuvidagi arab va kirill alifbosining mavjudligi o'zbek xalqining o'ziga xosligini ifodalashda, jamiyatni modernizatsiya qilishda ayrim to'siqlarni keltirib chiqargan. O'zbek yozuvi o'zgartirilishi kerakligi haqidagi fikr, ayniqsa, 1990-yillarda kuchli ravishda ilgari surildi. 1993-yil 2-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "O'zbekiston Respublikasi Davlat tilini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni chiqarildi. Unga ko'ra, lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi qabul qilindi. Bu jarayon savod o'rganishni nisbatan yengillashtirgan bo'lsa-da, eski yozuvdagi manbalarni o'qish muammosi va avlodlar o'rtasida yozuv tafovutining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan bo'lsa ham, u davlatimizning rivojlanishini yanada tezlashtirdi, xalqaro kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirdi, va o'qitish jarayonida yangi vositalar va metodologiyalarni qo'llashga imkon berdi. O'zbek tili va yozuvining o'zgartirilishi, umuman, o'zbek xalqining jahon tilshunosligi va madaniyatiga qo'shgan hissasini yanada oshirdi. 1995-yil, 2019-yilda alifbo takomillashtirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi. Hozirgi amaldagi alifbo 29 ta harfdan iborat. [6; B.67.].

Xulosa. Umuman olganda, har bir davlat o'z yozuviga erishguncha, bir qancha bosqichlarni bosib o'tishgan va ba'zi qiyinchiliklarga ham duch kelishgan. Bu jarayon mukammal tilning shakllanishiga turtki bo'lgan. Bugungi kunga kelib O'zbekistonda barcha hujjatlar, ish qog'ozlari o'zbek tiliga asoslangan lotin tilida yozilmoqda. Demak, arab yozuvidan lotin yozuviga o'tish jarayoni ijobiy natijalar bilan birga muayyan qiyinchiliklarni ham o'z ichiga olgan tarixiy jarayon sifatida baxolanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Arxiv.uz - O'zbekiston ilmiy maqolalari va dissertatsiyalar elektron bazasi. 2024.

2. Ziyonet. Ilmiy va ta'limiy resurslar milliy axborot tarmog'i. 2024.
3. Komilov, N. O'zbek tili tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2001.
4. Sirajiddinov, B. O'zbek yozuvi tarixi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1999.
5. Ilmiy maqolalar O'zbek tili va yozuvi tarixiga oid ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent, 2000-2023.
7. Natlib.uz O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron resurslari. 2024.
8. Isanova, Feruza (2020) ENGLISH AS AN INTERNATIONAL COMMUNICATION LANGUAGE. «2020 йил - Илм-маърифат ва ракамли иктисодиётни ривожлантириш йили»га багишланган профессор-укитувчи ва ёш олимларнинг III - масофавий илмий- (3). pp. 1712-1713. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2087>.
9. Isanova, Feruza (2021) ФАКТОР НАЦИОНАЛЬНОГО ЯЗЫКА В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. Материалы республиканской научно-практической конференции «СТРАНОВЕДЕНИЕ: ЯЗЫК, ИСТОРИЯ И КУЛЬТУРА». pp. 34-38. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2086>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.